

XX ASRNING 20 – 30-YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA SOVET HOKIMIYATIGA QARSHI QUROLLI KURASHLAR VA ULARNING BOSTIRILISHI

Ramz Fayziyev

Aniq va Ijtimoiy Fanlar universiteti II bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18790440>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning 20 – 30-yillarida Sovet hokimiyatining Turkiston mintaqasi, jumladan Samarqand viloyatida olib borgan qatag'on siyosati va bu qirg'inlarga qarshi yurt ozodligi yo'lida jon tikkan qo'rboshilarning qurolli qarshilik harakatlari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Qatag'on, Qo'rboshi, "Uchlik", "Quloq", "Xalq dushmani", "Yot unsur", OGPU.

Abstract. This article examines the qatag'on (repressive) policy pursued by the Soviet authorities in the Turkestan region, including Samarkand Province, during the 1920s–1930s of the twentieth century, and highlights the armed resistance activities of the qo'rboshi leaders who, in the cause of national liberation, risked their lives in opposition to these mass repressions and killings.

Keywords: Qatag'on; Qo'rboshi; "Uchlik" (troika); "Quloq" (kulak); "Xalq dushmani" ("enemy of the people"); "Yot unsur" ("alien element"); OGPU (Joint State Political Directorate).

Аннотация. В статье рассматриваются репрессивная политика советской власти в Туркестанском регионе, в том числе в Самаркандской области, в 1920–1930-е годы XX века, а также вооружённые движения сопротивления со стороны qo'rboshi (курбаши), которые, рискуя жизнью, выступали против этих расправ на пути к освобождению Родины.

Ключевые слова: репрессии, курбаши, тройка, кулак, враг народа, ОГПУ.

Kirish

Turkiston xalqlari doimo o'z ozodligi uchun tashqi bosqinchilarga qarshi kurash olib borganlar. Bu davrda milliy ozodlik uchun kurash butun Turkistondagi kabi Samarqand viloyatida ham shiddatli va murosasiz tarzda kechgan. 1917-yilgi oktyabr to'ntarishidan keyin hokimiyatga kelgan bolsheviklar partiyasi o'zidan oldingi chor mustamlakachilardan ham vahshiyroq ish tutdi.

Bolsheviklar ma'muriy-buyruqbozlik tizimini vujudga keltira boshladi. Milliy urf-odatlarining ta'qib etilishi, inson erki va haq-huquqlarini poymol etilishi hamda boshqa sabablar keyinchalik butun Turkiston bo'ylab sovet tuzumiga qarshi qurolli harakatning avj olishiga sabab bo'ldi.

Qurolli harakatning boshlanishi

Sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat Turkiston muxtoriyati hukumatining tor-mor qilinishi bilan boshlanganligi shu kungacha deyarli barcha tarixchilarning asarlarida e'tirof etiladi. Bolsheviklar tuzumiga qarshi qurolli kurash harakati Farg'ona vodiysida keng quloch yoygan bo'lib, Turkiston mustaqilligi uchun jiddiy kurash olib borgan Madaminbek, Shermuhammadbek, Kichik Ergash, Katta Ergash qo'rboshi kabi vatanparvar insonlar ham aynan shu zamin farzandlaridir.

Farg'ona vodiysidan keyin bu kurash keng quloch yoyib, boshqa hududlarga, jumladan, Samarqand viloyatida ham tarqaldi.

Samarqand viloyatida Ochilbek, Bahrombek, Hamroqulbek, Dodxohbek, Said Murod qo'rboshi kabi vatanparvar kishilar sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat guruhlari tashkil etib, qizil armiyaga qarshi janglar olib borganlar.

Samarqand viloyati 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanishga qadar 1918-yilda tashkil etilgan TASSR tarkibidagi viloyat bo'lib, u to'rtta uyezddan, ya'ni Kattaqo'rg'on, Samarqand, Xo'jand, Jizzax uyezdidan iborat edi. Samarqand shahri 1925 – 1930-yillarda O'zbekiston SSRning poytaxti bo'ldi.

Samarqand viloyatida qurolli harakatining boshlanishiga sovet hokimiyatining milliy manfaatlarni poymol etishi, oziq-ovqat razvyorstkasi, mulkdor va tadbirkor dehqonlarni mol-mulkini musodara qilib, o'zlarini “quloq”, “xalq dushmani”, “yot unsur” sifatida surgun qilib yuborishning boshlanishi va jamiyatning erkin fikrlaydigan qismining milliy mustaqil davlat tuzish ishtiyoqi bilan yashashi, bu yo'lga butun hayotini qurbon qilishga tayyorligi ham sabab bo'lgan.

Sovet tuzumiga qarshi qurolli harakatning ishtirokchilari turli ijtimoiy qatlamga mansub bo'lgan vatanparvar kishilar bo'lib, bu kurashning boshida aksariyat millat uchun kuyinadigan, mulkdor, milliy manfaatlarni har narsadan ustun qo'yadigan qo'rboshilar turgan. Shuningdek, sovetlarga qarshi qurolli harakat guruhlari oddiy vatanparvar insonlar hisobiga ham ko'payib boravergan.

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat Samarqand viloyatida faoliyat yuritgan Ochilbek, Bahrombek, Hamroqulbek kabi yirik qo'rboshi guruhlari tomonidan tashkil etilgan. Bu qo'rboshilar guruhlari sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borishni maqsad qilib qo'ygan “Milliy ittihad” va boshqa yashirin milliy tashkilotlar bilan mustahkam aloqada bo'lib, ularning yo'l-yo'rig'i bilan ish olib borgan, ushbu tashkilotlarning moddiy va ma'naviy ko'magi bilan faoliyat yuritgan.

Turkiston ASSRda, jumladan, Samarqand viloyatida sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat guruhlarning tashkil etilib, mustabid tuzumga qarshi kurash olib borishiga, bolsheviklar hukumatining butun dunyoga o'zini eng adolatli jamiyat deb jar solgani holda, tadbirkor, ziyoli kishilarga hatto saylanish va saylash huquqini bermaganligi, demokratik tamoyillarga zid ravishda inson huquqlarini poymol etganligi ham sabab bo'lgan.

RSFSR Konstitutsiyasining 65-moddasi va Turkiston ASSR konstitutsiyasiga ko'ra foyda olish uchun yollanma mehnatdan foydalanayotganlar, xususi savdo bilan shug'ullanayotganlar va vositachilar, ruhoniylar, sobiq politsiya amaldorlari, shuningdek, sudxo'rlik bilan shug'ullanuvchilar, podsho, amir va xon xonadoniga mansub shaxslar, Buxoro va Xiva hukumatlarining amaldorlari saylash va saylanish huquqidan mahrum etilgan.

Sovet hokimiyatiga qarshi bo'lgan kishilarni jazolash maqsadida 1920-yilda Samarqand viloyati inqilobiy tribunali tashkil etilgan. Inqilobiy tribunal a'zolari ishchi, soldat, musulmon dehqon deputatlar Samarqand viloyati soveti tomonidan saylangan. Inqilobiy tribunalda rais, kotib, mirzo va 40 ta a'zo faoliyat ko'rsatgan. Tribunalda 6 kishidan iborat komissiya ish yuritgan.

Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasining 1921-yil 15-noyabrida bo'lib o'tgan yig'ilishida qurolli harakatga qarshi kurash masalasi muhokama qilinadi. Sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat viloyatning barcha hududlarida, ayniqsa, Kattaqo'rg'on va Xo'jand uyezdlarida keng quloq yoyganligi ta'kidlanadi. Militsiya tomonidan ularga qarshi olib borilayotgan janglar natijasiz tugaganligi, buning uchun prezidium eng keskin choralarni qo'llashi, viloyat militsiya tarmog'ini kengaytirishi zarurligi ta'kidlanadi.

Viloyat ijroiya qo'mitasi qoshida favqulodda "uchlik" guruhini tashkil etib, unga keng vakolatlar beriladi. Bunday guruhlar faoliyati natijasida birgina, Kattaqo'rg'on uyezdida qurolli harakatning 80 nafar vakili qo'lga olingan. Lekin bu choralar qurolli muxolifat harakatini bostira olmadi. Sovet hokimiyati qurolli muxolifatga qarshi kurashda ularning qarindosh-urug'larini garovga olish, tazyiq o'tkazish va jazolash kabi repressiv usullardan keng foydalangan.

Samarqand viloyati militsiya boshqarmasi boshlig'ining 1922-yilda 2 oy davomida olib borgan ish faoliyati to'g'risidagi hisobotida "bosmachilik" harakati Samarqand, O'ratepa uyezdida keng tus olayotganligi, ular militsiyaga hujum qilib, unga katta talafot yetkazayotganligi ta'kidlab o'tilgan. Boshqa bir manbada, ya'ni Samarqand viloyati ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining 1922-yildagi hisobotida ta'kidlanishicha, qurolli harakat vakillari Sovet hukumatiga qarshi kuchli tashviqot olib borgan. Bu jarayon, ayniqsa, Xo'jand, O'ratepa, Jizzax uyezdida avj olib, bu hududlarda qurolli harakat guruhlarini safi kundan-kunga kengayib borgan. Bu harakatning ta'siri nafaqat qishloqlarda, balki shahar atrofida ham kuchli edi. Sovet hukumati tomonidan olib borilgan agrar siyosat, ayniqsa, oziq-ovqat razvyorstkasi jamiyatning barcha tabaqalarining noroziligini kuchaytirib yuborgandi. Ko'plab kishilar qurolli harakat guruhlarini safiga qo'shilish uchun tog'larga chiqib ketishgan. Ayniqsa, O'ratepa shahrida vaziyat keskin bo'lib, uni uch tomondan qo'zg'olonchilarning guruhlarini o'rab olgan.

Milliy vatanparvar kuchlar mahalliy xalq ishonchini oqlash uchun xalqni islom va shariat dushmanlari bo'lgan bolsheviklarga qarshi kurashga chorlagan. Masalan, Samarqand uyezdidagi nufuzli qo'rboshilardan bo'lgan Bahrombek va Ochilbeklar targ'ibot va tashviqotni keng yo'lga qo'yishi natijasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishganlar. Shunday holat vujudga kelganki, sovet hukumati ularga qarshi kurashda aytarli yutuqlarga erisha olmagan. Aksincha, aholi qurolli harakat guruhlarini tomoniga o'tib, ularga ommaviy ravishda har tomonlama yordam ko'rsata boshlagan.

Sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat avj olishining asosiy sabablariga yana mahalliy urf-odat, an'analarga tajovuz, shuningdek, ko'pgina mahalliy millat kishilarini sovet hokimiyati siyosatinining asl mohiyatini tushunib yetganligida bo'lgan. Biroq sovet hukumati xalq orasida bolshevistik targ'ibot-tashviqotni avj oldirish hamda bir qancha yengilliklar berish yo'li bilan 1922-yilning oxirlarida Samarqand viloyatida bu qarshilik harakatini bir muncha susaytirishga muvaffaq bo'lgan. Ammo bu harakat 1923-yilning mart oyidan boshlab yana ommaviy tus olgan va siyosiy mazmun kasb eta borgan. Samarqand viloyatidagi qurolli harakat qatnashchilari soni kun sayin ortib borgan.

Samarqand viloyatida Dodxohbek qo'rboshi boshchiligidagi qurolli guruh ham faoliyat olib borgan. Unda rus millatiga mansub kishilarning mavjudligi esa ushbu hududda yashovchi turli millat vakillarining "qizil saltanat" hukmronligi ostida yashashni istamaganligini tasdiqlaydi. Dodxohbek guruhi 200 kishidan iborat bo'lib, ular miltiq va yetarli darajada patron bilan ta'minlangan. Uning guruhidagi yigitlar ishonchli va jangovar bo'lganlar. Guruhning hamma a'zolari bir xil, ya'ni sariq gimnastyorka va yashil rangli kamzul kiyganlar. Miltiqlardan tashqari, turli tipdagi revolverlar bilan qurollangan bo'lib, Dodxohbekning o'zi "Mauzer" tipidagi revolver bilan qurollangan. Guruh otlar bilan yetarli darajada ta'minlangan hamda 10-50 tagacha yigiti bo'lgan kichik guruhlariga bo'linib, turli qishloqlarda faoliyat olib borgan.

OGPU qoshidagi favqulodda "uchlik" komissiyasi Samarqand viloyatida minglab kishilarning qatag'on etilishiga sababchi bo'lgan. Eng achinarlisi shundaki, ushbu jazoga hech qanday gunohi bo'lmagan kishilar ham tortilgan.

Joylardagi sotqin kishilarning yolg'on ma'lumoti jazolash uchun kifoya qilgan. Masalan, Kattaqo'rg'on tuman jinoyat qidiruv bo'limi tomonidan 1924-yilning 18-iyunida sovet hukumatiga qarshi deb hisoblanib, hech qanday aybi isbotlanmasdan, Mirza Xudoyqulov, Oston Jalilov, Shukur Murodov, Qurbon Yo'ldoshev va Temur Uzoqovlarning jinoiy javobgarlikka tortilganliklari va surgun qilinganliklari ma'lum.

Xulosa

Bolshevistik tuzumga qarshi butun Turkiston mintaqasida bo'lgani kabi Samarqand viloyatida ham vatanparvar kuchlar turli qurolli guruhlar tuzib, 10 yillar mobaynida jiddiy kurash olib borishgan.

Ammo bolshevistik tuzum, bir tomondan, keskin qurolli kurash, ikkinchi tomondan, targ'ibot, tashviqot bilan, uchinchi tarafdin esa, xalqqa vaqtinchalik ba'zi yengilliklar berish yo'li bilan qurolli harakat guruhlarini parokanda qilishga, zaiflashtirishga, oxir oqibat tormor qilishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu harakatning zaiflashishiga mahalliy sotqin kishilarning bolsheviklarga bergan ko'magi, qo'rboshilar o'rtasida mustahkam birlikning yo'qligi ham qo'l keldi.

Adabiyotlar.

1. Shamsutdinov R. Istiqlol yo'lida shahid ketganlar. –T.: Sharq, 2001.
2. Rajabov Q.K. Farg'ona vodiysidagi istiqloqlchilik harakati yo'lboshchilari // Turkiston birligi va mustaqilligi uchun kurash sahifalaridan.
3. Ражабов Қ.К. Ўзбекистон ССРда Совет режимининг қатағон сиёсати ва унунг оқибатлари. Т: Фан, 2025.
4. Ражабов Қ.К. Фарғона водийсидаги истиқлолчилик ҳаракати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари (1918-1924 йй). т.ф.н. учун дисс. ... автореферати. – Тошкент, 1994.
5. Hamroqulov R., G'ofurov O. Kishanlarni yondirgan yolqin. Hujjatli ocherk. –Samarqand: Zarafshon, 2000.
6. Тоиров А.Э. Ўзбекистонда Совет ҳокимиятининг қатағон сиёсати (1918-1938 йй). т.ф.н. учун дисс. ... автореферати. – Самарқанд, 2007.